



NAVOIY VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

*Dastlabki ma'lumot
2023- yil
yanvar-dekabr*



*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Тел. 79-223-50-43*

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024- yil 1-yanvar holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 6 673 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 11 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 6 662 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023- yilning yanvar-dekabr oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 11 985,8 mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 107,5 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 748,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 112,0 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 11 237,2 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 107,2 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 825,8 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 114,5 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-dekabr oyiga nisbatan, foizda
Navoiy viloyati	11 985,8	107,5
Navoiy sh.	3 347,1	108,0
Zarafshon sh.	1 202,9	106,9
G'ozg'on sh.	6,7	106,3
Konimex t.	371,5	111,6
Qiziltepa t.	1 419,0	106,9
Navbahor t.	749,7	107,9
Karmana t.	1 972,5	106,5
Nurota t.	627,4	108,9
Tomdi t.	106,5	108,2
Uchquduq t.	626,7	108,1
Xatirchi t.	1 555,8	106,7

2023- yilning yanvar-dekabr oyida 2022- yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan viloyatning Konimex tumani (111,6 %), Nurota tumani (108,9 %) va Tomdi tumani (108,2 %) chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.


Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-dekabr)



So'nggi 5 yillikda (2019- 2023- yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda (110,2 %) kuzatildi.


Chakana savdo tovar aylanmasi 11 985,8 mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 107,5 % ni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, oylar kesimida (foizda)



2023- yilning yanvar-dekabr oyida o'sish sur'ati **107,5 %** ni tashkil qildi.

Ulushi, foizda




Navoiy viloyatida chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Navoiy shahri 27,9 % bilan 3 347,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Navoiy viloyatida chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, G'ozg'on shahri 0,1 % bilan 6,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Navoiy viloyatida chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.


Hajmi, mlrd. so'm





Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 11 237,2 mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 7,2 % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 93,8 % ni tashkil etdi.




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022- yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 12,0 % ga o'sdi va 748,6 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 6,2 % ulushiga to'g'ri keldi.



CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)




 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Uchquduq tumani (99,6 %), Karmana tumani (99,3 %), Tomdi tumani (99,2 %) yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 6,2 % ni tashkil etib, eng katta ulush Navoiy shahri (15,7 %), Navbahor tumani (7,5 %), Zarafshon shahrida (6,6 %) kuzatildi.

6,2 %



93,8 %




 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik




Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*

Navoiy sh.	21 104,3
Zarafshon sh.	13 747,7
G'ozg'on sh.	728,8
Konimex t.	9 931,8
Qiziltepa t.	8 841,0
Navbahor t.	6 257,8
Karmana t.	14 376,5
Nurota t.	7 065,2
Tomdi t.	6 782,9
Uchquduq t.	15 988,5
Xatirchi t.	7 356,1



2023- yilning yanvar-dekabr oyi holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 11 250,1 ming. so'mni (2022- yilning yanvar – dekabr oyiga nisbatan 105,4 %) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Navoiy shahri (21 104,3 ming. so'm), Uchquduq (15 988,5 ming. so'm) va Karmana (14 376,5 ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.




Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.

Izoh: Navbahor, Tomdi, Uchquduq tumanlarida va Navoiy, Zarafshon shaharlarida chorva bozori mavjud emas. G'ozg'on shahrida dexqon va chorva bozori mavjud emas,



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati, foizda



Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o‘rinlari, turg‘un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	Jami, mlrd. so‘m	2022- yil yanvar- dekabr oyiga nisbatan, foizda
Navoiy viloyati	825,8	114,5
Navoiy sh.	203,1	121,0
Zarafshon sh.	32,7	116,5
G‘ozg‘on sh.	-	-
Konimex t.	42,8	111,1
Qiziltepa t.	86,8	104,0
Navbahor t.	11,3	106,3
Karmana t.	201,1	112,5
Nurota t.	53,2	121,5
Tomdi t.	8,6	102,5
Uchquduq t.	26,9	122,5
Xatirchi t.	159,3	114,1


* – xo‘jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo‘shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo‘jaligida o‘z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.


Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari

(2023- yil yanvar-dekabr)

Izoh G'ozg'on shahrida bozorlar mavjud emas














Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm (2023- yil yanvar-dekabr)



Viloyat bo'yicha 2023- yilning yanvar-dekabr oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 825,8 mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 114,5 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 522,2 mlrd. so'mni (119,9 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 303,6 mlrd so'mni tashkil etdi (106,4 %).













2023- yilning dekabr oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 65,8 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

<p>Qishloq xo'jaligi mahsulotlari</p> <p>36,5 mlrd. so'm</p>  <p>56,8 %</p>	<p>Non va non mahsulotlari</p> <p>9,7 mlrd. so'm</p>  <p>13,3 %</p>	<p>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</p> <p>5,1 mlrd. so'm</p>  <p>7,6 %</p>
<p>Tovuq go'shti</p> <p>1,6 mlrd. so'm</p>  <p>2,3 %</p>	<p>Quritilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</p> <p>2,5 mlrd. so'm</p>  <p>3,8 %</p>	<p>Tuxum</p> <p>1,7 mlrd. so'm</p>  <p>2,8 %</p>
<p>Ziravorlar</p> <p>1,6 mlrd. so'm</p>  <p>2,7 %</p>	<p>Sut va sut mahsulotlari (sir, brinza,...)</p> <p>2,7 mlrd. so'm</p>  <p>4,2 %</p>	<p>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</p> <p>1,1 mlrd. so'm</p>  <p>1,8 %</p>
<p>Tuzlamalar</p> <p>2,3 mlrd. so'm</p>  <p>3,6 %</p>	<p>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari (manzarali va qishloq xo'jaligi)</p> <p>1,0 mlrd. so'm</p>  <p>1,1 %</p>	

2023- yilning dekabr oyida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 27,2 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 22,2 mlrd.so'm, qo'y va echkilar – 4,8 mlrd. so'mni, otlar – 0,07 mlrd. so'mni, parrandalar – 0,09 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi

<p>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</p> <p>13,5 mlrd. so'm</p>  <p>49,3 %</p>	<p>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p>4,1 mlrd. so'm</p>  <p>15,0 %</p>	<p>1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar</p> <p>4,6 mlrd. so'm</p>  <p>17,5 %</p>
<p>Qo'ylar</p> <p>3,5 mlrd. so'm</p>  <p>12,9 %</p>	<p>Otlar</p> <p>0,07 mlrd. so'm</p>  <p>0,2 %</p>	<p>Echkilar</p> <p>1,3 mlrd. so'm</p>  <p>4,7 %</p>
<p>Kurka, o'rdak, g'oz</p> <p>0,05 mlrd. so'm</p>  <p>0,1 %</p>	<p>Tovuqlar</p> <p>0,03 mlrd. so'm</p>  <p>0,1 %</p>	<p>Quyionlar</p> <p>0,03 mlrd. so'm</p>  <p>0,1%</p>
<p>Qushlar</p> <p>0,02 mlrd. so'm</p>  <p>0,1 %</p>		

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024- yil 1-yanvar holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 272 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 1 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 271 tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar- dekabr oyiga nisbatan, foizda
Navoiy viloyati	480,4	110,3
Navoiy sh.	166,5	112,7
Zarafshon sh.	75,7	134,1
G'ozg'on sh.	0,2	104,1
Konimex t.	7,2	106,9
Qiziltepa t.	26,0	88,1
Navbahor t.	58,3	95,2
Karmana t.	77,5	111,6
Nurota t.	8,6	105,8
Tomdi t.	1,9	104,3
Uchquduq t.	22,5	106,7
Xatirchi t.	36,0	108,2

2023- yilning yanvar-dekabr oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 480,4 mlrd. so'mga yetdi. 2022- yilning mos davriga nisbatan 110,3 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 90,2 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Navoiy viloyati	3 930,4	100,0
Navoiy sh.	2 960,6	75,3
Zarafshon sh.	10,6	0,3
G'ozg'on sh.	-	-
Konimex t.	8,1	0,2
Qiziltepa t.	39,0	1,0
Navbahor t.	6,8	0,2
Karmana t.	865,6	22,0
Nurota t.	12,4	0,3
Tomdi t.	-	-
Uchquduq t.	11,2	0,3
Xatirchi t.	16,1	0,4


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Navoiy shahri (2 960,6 mlrd. so'm), Karmana tumani (865,6 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so‘m)




2023- yilning yanvar-dekabr oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 3 930,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 61,0 % ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 1 915,2 mlrd. so‘m (o'sish sur'ati – 152,2 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – 2 015,2 mlrd. so‘mni (o'sish sur'ati – 170,2 %) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2023- yilning yanvar-dekabr oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 3 740,7 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 3,2 % ga o‘tdi.

Savdo aylanmasi va ulushi

15,4 % 575,2 mlrd. so‘m

Yirik korxonalar

84,6 % 3 165,5 mlrd. so‘m

Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 3 165,5 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 119,8 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 84,6 % ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlari Konimex tumani va Uchquduq tumanida kuzatildi.

2024- yil 1-yanvar holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 1 556 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 5 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 551 tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar- dekabr oyiga nisbatan, foizda
Navoiy viloyati	3 740,7	103,2
Navoiy sh.	1 739,0	121,2
Zarafshon sh.	158,5	121,4
G'ozg'on sh.	0,2	116,1
Konimex t.	9,5	137,1
Qiziltepa t.	433,4	117,2
Navbahor t.	264,8	69,9
Karmana t.	771,0	85,2
Nurota t.	58,1	128,9
Tomdi t.	5,3	121,4
Uchquduq t.	142,8	133,7
Xatirchi t.	158,1	65,2